

O'ZEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRILIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSTITETI

MEHNAT TA'LIMI FANIDAN TEXNOLOGIK
YONDASHUV ASOSIDA DARS ISHLANMALARI

Mualliflar:

O.A.Qo'ysinov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Kasb ta'limi metodikasi" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

H.S.Yakubova, G.S.Nasriddinova, mazkur universitet o'qituvchilari

Taqrizchi:

S.Y.Axmadaliev, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Umumtexnika fanlari" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mundarija

Mehnat ta'limi fanidan mashg'ulotlarni tashkil etishda etiborga olinadigan omillar.....	3
Texnologik yondashuv asosida 5-sinf mehnat ta'limi darslarini tashkil etish va o'tkazishga doir ishlanmalar.....	4
Texnologiya va dizayn yo'nalishi	
5-6 mavzu: Arralar va frezalar turlari. Zubilo, otverka va ombirlar. Bolg'alar va ularning turlari: po'lat, yog'och va plastik bolg'alar va to'qmoqlar. Yog'och va jilvirqog'ozlartuzilishivaturllari.....	4
Servis xizmati yo'nalishi	
49-50 mavzu: Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar, naqsh elementlari. Naqshlar chizish.....	8
Qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishi	
17-18 mavzu: Qishloq xo'jaligida paxta yetishtirish texnologiyasi va jarayoni.....	11



Mehnat ta'limi fanidan mashg'ulotlarni tashkil etishda etiborga olinadigan omillar

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kuchayib bormoqda. Chunki shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni bilimlarni o'zlari mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchi shaxsini rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. O'quvchi esa ta'lim jarayonining asosiy sub'ektiga aylanadi.

Mehnat ta'limi darslarida ham boshqa fanlardagi kabi zamonaviy texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. mehnat ta'limi darslari yo'nalishlar hamda sinflar kesimida o'ziga xos xususiyatlar asosida o'qitiladi.

Xususan, 5-7 sinflarda mehnat ta'limi mazmuni "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati", "Qishloq xo'jaligi asoslari" kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Har bir yo'nalishni o'qitishda darslarni tashkil etish, amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv ustaxonalarining jihozlanish tartibi alohida o'rin tutadi. "Metallga ishlov berish" va "Yog'ochga ishlov berish" bo'limlarini o'qitishda har bir o'quvchi uchun chilangarlik ishlarini bajarish uchun ish o'rnini va duradgor ish verstagining mavjudligi, asbob va moslamalarning yetarli bo'lishi talab etiladi

Amaliy mashg'ulotlarda har bir o'quvchiga alohida vazifalar beriladi, o'quvchilar ijodiy yondashgan holda mustaqil ishlashlariga imkon yaratiladi. O'quvchining darslarda egallagan bilim, ko'nikma va malakalari amaliy vazifalarning natijasiga ko'ra baholanadi. Mehnat ta'limi darslarining 70-80 foizi amaliy mashg'ulotlardan iborat. Amaliy darslarga qo'yiladigan bir qancha talablar mavjud bo'lganligi sababli mehnat ta'limi fanini loyihalash va rejalashtirishda ularni inobatga olish zarur.

Amaliy mashg'ulot – aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan, aniq bir topshiriqni bajarish uchun nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didaktik harakatdir.

Amaliy mashg'ulot mehnat ta'limining tarkibiy qismi bo'lib, o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o'quv dala maydonlarida ish o'rnida mavjud bo'lgan real vositalardan foydalanilgan holda o'tkaziladi.

Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish bu kutilayotgan o'quv natijalariga erishish maqsadida o'quv jarayoniga tayyorgarlik ko'rish: ta'lim metodlarini tanlash, tarqatma materiallar va o'quv-didaktik vositalar tayyorlashdan iboratdir.

Amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda o'quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilinishi lozim. Umumta'lim maktablarida o'quv ustaxonalarining maydoni mavjud loyihalarga ko'ra 70-90 m² ni tashkil etadi. Ustaxonalar ta'lim muassasasida ortiqcha shovqin bo'lmasligi uchun maktabning asosiy binosidan bir oz uzoqroqda quriladi.

O'quv ustaxonalari materiallar, yarim fabrikatlar, tayyor buyumlar, shuningdek, asboblari va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun'iy shamollatiladigan, me'yorda tabiiy va sun'iy yoritilgan ish o'rne bo'lishi, havo temperaturasi qishda 14-16°S, yoz davrida esa 20°S dan oshmasligi kerak. Yoritish uchun tabiiy yorug'likdan yoki sharoitga qarab kunduzgi yorug'lik lampalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quv ustaxona devorlari silliq bo'lib, shift qismi oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bular xonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. Yorqin bo'yoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi ob'ektlar bilan ustaxonaning umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi. Ustaxonalardagi shovqin va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi hamda tebranishni yo'qotuvchi jihozlardan, eng to'g'ri mehnat usullaridan foydalanish yo'li bilan erishish mumkin.

O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalarini joylashtirish vaqtida yong'inga qarshi choralarga, mehnatni muhofaza qilish va sanoat sanitariyasi talablariga rioya qilish zarur, ustaxonalar asbob-uskunalar bilan to'ldirilib yuborilmasligi kerak. Tikuv mashinalari va ularning orasidagi o'tish yo'llari belgilangan me'yorlar darajasida bo'lishi lozim. Dastgohlar, tikuv mashinalarning oxirgi qatorlari bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa kamida 0,5 m bo'lishi kerak.

Ustaxonalarning maydonidan oqilona foydalanish, ularning toza bo'lishi, asbob-uskunalarining to'g'ri saqlanishi, estetika talablariga rioya qilish va namunali tartib – bularning hammasi o'quvchilarni intizomga, tejamkorlikka, davlat mulkiga ehtiyotkor munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Ustaxonada qo'i yuvish, ustki va maxsus kiyim-kechaklar saqlanishi uchun sanitariya-gigiyenik talablariga rioya qilgan holda shart-sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.

Mehnat ta'limi mashg'ulotlarini tashkil etishda yo'riqnomalardan foydalaniladi. Yo'riqnoma–mehnat faoliyati usullarini tushuntirish, ko'rsatish hamda mehnat faoliyatlarini to'g'ri, xavfsiz bajarish bo'yicha tasavvur hosil qilishga va o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan tavsiyalardir. Yo'riqnoma darsning bir qismi (elementi)dir. Yo'riqnomaga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

Yo'riqnoma jarayonida ta'limning har xil metodlaridan foydalanish. Agar o'qituvchining o'quvchilar oldiga qo'ygan topshirig'i ularga tushunarli bo'lmasa, o'quvchilar uni bajarish shartini ko'pincha buzadilar va bu kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun o'qituvchi tomonidan beriladigan yo'riqnoma mazmuni asoslangan bo'lishi kerak.

Yo'riqnomaning to'laligi va uni qismlarga ajratish. Mehnat topshirig'ining qiyinligi va u qaysi sinfda bajarilayotganiga qarab yo'riqnoma butun yoki ishning borishiga qarab qismlarga ajratib berilishi mumkin. Yo'riqnomada shunday ko'rsatmalar bo'lishi kerakki, o'quvchi ular yordamida o'z faoliyatini nazorat qila olishi kerak. Kirish, joriy va yakuniy yo'riqnomalar bir-biridan farq qiladi.

Kirish yo'riqnomasi mehnat usullarini me'yoriy va sekinlashtirilgan sur'atlarda bajarish qoidalarini namoyish qilishni, o'z-o'zini nazorat qilish belgilarini, aniq mehnat vazifasini o'z ichiga oladi. Kirish yo'riqnomalarini berishdan asosiy maqsad o'quvchilarni amaliy topshiriqlarni ongli ravishda eng samarali usullar bilan bajarishga tayyorlash, nuqson va xatolarning oldini olish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishiga erishishdir.

Joriy yo'riqnoma o'quvchilar ishini to'xtatish-xatoga yo'l qo'ygan o'quvchining ishiga e'tibor berish, undan vazifani noto'g'ri bajarganligining sababini tushuntirib berishini talab qilish, shu asnoda hamma o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish, o'qituvchining to'g'ri usullarni ko'rsatishi, o'quvchiga qanday xatoga yo'l qo'yganligini tushuntirishi, guruhga ishni davom ettirishga ruxsat berishdan iboratdir.

Yakuniy yo'riqnoma sifatli bajarilgan va noto'g'ri bajarilgan buyumlarni namoyish qilishni, o'quvchilar ishining umumiy xarakteristikasini, o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolar tahlilini, o'quvchilar ishini baholashni o'z ichiga oladi.

TEKNOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA 5-SINF MEHNAT TA'LIMI DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHGA DOIR ISHLANMALAR

Texnologiya va dizayn yo'nalishi

5-6 mavzu: Arralar va frezalar turlari. Zubilo, otverka va ombirlar. Bolg'alar va ularning turlari: po'lat, yog'och va plastik bolg'alar va to'qmoqlar. Yog'och va jilvir qog'ozlar tuzilishi va turlari.


Darsni olib borish texnologiyasi


O'quvchilar soni: 17 nafar	Mashg'ulot vaqti – 90 daqiqa
Dars shakli	Nazariy
Mavzu rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Dastaki chilangarlik arrasi tuzilishi 2. Frezalar turlari haqida bilib oladilar 3. Chilangarlik zubilosi 4. Otverkalar, chilangarlik ombirlari 5. Chilangarlik bolg'alari va yog'och to'qmoq 6. Maxsus yog'ochga biriktirilgan jilvir
Dars maqsadi:	O'quvchilarni chilangarlik arralari va frezalar turlari, zubilo, otverka va ombirlar, bolg'alar va ularning turlari bilan tanishtirish.
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyatining natijalari:
<ol style="list-style-type: none"> 1. Dastaki chilangarlik arrasi haqida ma'lumot berish 2. Frezalar turini tushuntirish 3. Chilangarlik zubilosi haqida ma'lumot berish 4. Otverkalar, chilangarlik ombirlari bilan tanishish 5. Chilangarlik bolg'alari va yog'och to'qmoq haqida ma'lumot berish 6. Maxsus yog'ochga biriktirilgan jilvir bilan tanishish 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Dastaki chilangarlik arrasi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar hamda ishlatish ko'nikmalarini egallaydilar. 2. Frezalar turini 3. Chilangarlik zubilosi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar hamda ishlatish ko'nikmalarini egallaydilar. 4. Otverkalar, chilangarlik ombirlari bilan tanishadilar hamda ishlatish ko'nikmalarini egallaydilar. 5. Chilangarlik bolg'alari va yog'och to'qmoq haqida ma'lumotga ega bo'ladilar hamda ishlatish ko'nikmalarini egallaydilar. 6. Maxsus yog'ochga biriktirilgan jilvir bilan tanishadilar hamda ishlatish ko'nikmalarini egallaydilar.


Ta'lim metodi va texnikasi:	Og'zaki, ko'rgazmali, guruhlarda ishlash.
Ta'lim vositalari:	Slyd - taqdimot
Ta'limni tashkil etish shakllari:	Amaliy.
Ta'lim shart-sharoitlari:	Mehnat ta'limi bo'yicha maxsus texnik vositalari bilan jihozlangan "Metallga ishlov berish" o'quv ustaxonasi.
Monitoring va baholash:	O'z - o'zini nazorat qilish, baholash.


Darsning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari. Vaqti (90 daqiqa)	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tashkiliy qism (5 daqiqa)	1.1.Salomlashish. 1.2.Davomatni aniqlash. 1.3.Navbatchi tayinlash. 1.4. Guruhlarga bo'lish.	Guruh bo'yicha joylashadilar.
2-bosqich. O'tilgan mavzuni takrorlash (5 daqiqa)	2.1. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.	Uy vazifasini topshiradilar
3-bosqich. Yangi mavzu bayoni (60 daqiqa)	1. Dastaki chilangarlik arrasi (1-ilova) 2. Frezalar turi (2-ilova) 3. Chilangarlik zubilosini (3-ilova) 4. Otverkalar, chilangarlik ombirlari (4-ilova) 5. Chilangarlik bolg'alari va yog'och to'qmoq (5-ilova) 6. Maxsus yog'ochga biriktirilgan jilvir (6-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini va atamalarini yozib oladi. Ishlov berish asboblarini amaliyotda qo'llash bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni egallaydilar..
4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash (10 daqiqa)	4.1. "Tuzilmaviy-mantiqiy chizma pog'ona" metodini tushuntiradi va o'tkazadi (7- ilova)	Berilgan savollarga javob beradilar.
5-bosqich. Darsni yakunlash (10 daqiqa)	5.1. Amaliy mashg'ulotning bajarilishini tahlil qiladi, o'quvchilarni baholaydi. 5.2. Ish o'rnini tartibga solish. 5.3. Uyga vazifa beriladi.	Tinglaydilar. Kundaliklariga yozib oladilar.


	1- ilova
Arra tuzilishi va ishlash jarayoni	Dastaki arra ba'zan yoy deb ham ataladigan ramka va unga mahkamlangan tishli yupqa po'lat polosadan iboratdir. Ramkalar biki va ajraladigan bo'ladi. Ajraladigan ramka ancha qulaydir, chunki unga uzunligi har xil arra polotnolarini o'rnatish mumkin. Ramkaning bir uchida dasta va arra polotnosini o'rnatish uchun o'yiqli ochilgan qo'zg'almas sterjen; ikkinchi uchida o'yiqli va quloqli gaykali tortish vinti bo'ladi va bu vint arra polotnosini taranglashga xizmat qiladi. Arralash jarayoni sortli prokat(prokatlash yo'li bilan ko'ndalang kesimi doira, kvadrat, uchburchak va boshqa shaklda prokatlangan po'latlar, polosali, lentali po'lat prokatlar)ni arra yordamida bo'laklarga ajratishdan iborat chilangarlik operatsiyasidir
Dastaki changarlik arrasi	


Frezalar	2- ilova
	<p>Freza metall va metalmas materiallardan tayyorlanadigan buyumlar va zagotovkalarining shakldor yuzalariga ishlov berish, tish, rezba o'yish va hokazolarda ishlatiladigan ko'p tig'li kesuvchi asboblarning mahkamlanish usuliga, shakliga, konstruksiyasi va tishlar yo'nalishiga qarab bo'linadi.</p>
Frezalar turlari	<p>a) silindrsimon; b, d) diskli; f) uchli; g) bo'rtgan; h) pazli; i) qabariqli; j) burchakli; k) qirquvchi.</p> 

Chilangarlik zubilosini	3- ilova
	<p>Chilangarlik zubilosini dastaki kesuvchi asbobdir. Zubiloning o'rta qismidan ko'ndalang kesimining yuzasi oval shaklida bo'ladi. Bunday shakldagi zubilo ishlatish uchun qulaydir, chunki u qo'lda sirg'alib va aylanib ketmaydi.</p> <p>1. Tig'. 2. Ishchi qism. 3. O'rta qism. 4. Kallak.</p> 

Otvorkalar, chlangarlik ombirlari	4- ilova
	<p>Otvorkalar-otvorkalar burama mixlar yordamida buyumlarni yig'ish, qotirish elektrotexnika ishlarida foydalaniladi.</p> <p>Ombur. Mixlab biriktirilgan buyumlarni qismlarga ajratishda va noto'g'ri qoqilgan mixlarni sug'urishda chilangarlik omburidan yoki mix sug'urgichlardan foydalaniladi. Mixlarni sug'urishda yog'och sirtini ezib qo'yimaslik uchun ombur va mix sug'urgichlarning ostiga ehtiyot taxtasi qo'yiladi.</p>
Otvorka turlari.	Ombur turlari
	



<p>Chilangarlik bolg'alari va yog'och to'qmoq</p>	<p style="text-align: right;">5- ilova</p> <p>Yog'och qismlarini yig'ishda, iskanalar yordamida o'yish-teshish ishlarini bajarishda duradgorlik bolg'alari va yog'och to'qmoqlardan foydalaniladi. Duradgorlik bolg'alari kvadrat, doira muhrali bo'lib, uchki qismi har xil ko'rinishda bo'ladi. Ayrim bolg'alarning uchki qismi mix sug'urishga moslangan. Duradgorlik bolg'alarining muhrasi tekis va silliq bo'lishi, qavariq va ezilgan joylari bo'lmasligi kerak. Qavariq va ezilgan muhrali bolg'alar yog'och sirtini ezib, tekisligini buzadi.</p>
	<p>1, 2 — yog'och bolg'alar; 3, 4, 5, 6, 7 — po'lat bolg'alar; 8, 9 — plastik bolg'alar.</p> 

<p>Maxsus yog'ochga biriktirilgan jilvir</p>	<p style="text-align: right;">6- ilova</p> <p>Sirtlarni pardoqlashdan oldin jilvir bilan ishqalab tozalash kerak. O'tkir qirralarni hamda burchaklarini egovlash va shundan keyin jilvir bilan ishlov berish lozim. Jilvir bir tomoniga mayda qattiq minerallar yoki shisha kukuni yelimlab yopishtirilgan ip mato yoki qalin qog'ozdan iboratdir. Odatda jilvir qog'ozlar maxsus yog'ochlarga biriktirilgan bo'ladi.</p>
	

7-ilova

TUZILMAVIY MANTIQUIY CHIZMA "POG'ONA"



1. "Pog'ona"ni tuzish jarayonida u yoki bu holatni qayta fikrlash uchun tizimli sxemaning tarkibiy qismi va elementlarini siljitish mumkin.

2. Agarda siz g'oyalarni ishlab chiqishda tor yo'lakka kirib qolsangiz, u holda bir-ikki daraja yuqoriga qayting va muhim narsani unutmaganingizga hamda boshqacha nimadir qilish mumkin ekanligini ko'rib chiqing.

3. Siz chapdan o'ngga yozishga o'rgangansiz. "Kaskad" qurishni o'ngdan chapga qarab tuzishga harakat qiling. Buning uchun asosiy g'oyani chap tarafda emas, balki o'ng tarafda joylashtiring.

Servis xizmati yo'nalishi

**49-50 mavzu: Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar, naqsh elementlari.
Naqshlar chizish.**

Darsni olib borish texnologiyasi

O'quvchilar soni: 17 nafar	Mashg'ulot vaqti – 90 daqiqa
Dars shakli	Amaliy
Mavzu rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kashtachilikning rivojlanish tarixi. 2. Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar 3. Naqsh elementlarini chizish 4. Naqshlar chizish.
Dars maqsadi:	O'quvchilarda kashtachilikning rivojlanish tarixi, kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar va naqsh elementlari, naqshlar chizish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyatining natijalari:
<ol style="list-style-type: none"> 1. Kashtachilikning rivojlanish tarixi bilan tanishtirish. 2. Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar haqida ma'lumot berish. 3. Naqsh elementlari to'g'risida ma'lumot berish. 4. Amaliy mashg'ulot jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalar. Texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalari bilan tanishtirish. 5. Naqsh chizishni o'rgatish. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kashtachilikning rivojlanish tarixi bilan tanishadilar. 2. Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar haqida ma'lumot oladilar. 3. Naqsh elementlari to'g'risida ma'lumot oladilar. 4. Amaliy mashg'ulot jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalar. Texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalari bilan tanishadilar. 5. Naqsh chizishni o'rganadilar.
Ta'lim metodi va texnikasi:	Og'zaki, ko'rgazmali, guruhlarda ishlash.
Ta'lim vositalari:	Slayd – taqdimot.
Ta'limni tashkil etish shakllari:	Amaliy.
Ta'lim shart-sharoitlari:	Mehnat ta'limi bo'yicha maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan “Gazlamaga ishlov berish” o'quv ustaxonasi.
Monitoring va baholash:	Amaliy ishlarni nazorat qilish, baholash.

Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar, naqsh elementlari. Naqshlar chizish

Darsning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari. Vaqti (90 daqiqa)	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tashkiliy qism (5 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1.1. Salomlashish. 1.2. Davomatni aniqlash. 1.3. Navbatchi tayinlash. 1.4. Guruhlarga bo'lish. 	Guruh bo'yicha joylashadilar.

2-bosqich. O'tilgan mavzuni takrorlash (5 daqiqa)	2.1. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.	Uy vazifasini topshiradilar
3-bosqich. Yangi mavzu bayoni (60 daqiqa)	3.1. Amaliy mashg'ulot mavzusi, amaliy topshiriq mazmuni va bajarish ketma-ketligini tushuntiradi. Joriy yo'l yo'riqlar 3.2. Kashtachilikning rivojlanish tarixi bo'yicha videorolik qo'yib ko'rsatiladi 3.3. Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar haqida ma'lumot beradi. (1-ilova) 3.4. Kashtado'zlikda xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalari. (2-ilova) 3.5. Naqsh chizishni o'rgatadi (3-ilova).	Tinglaydi, mavzu nomin va atamalarini yozib oladilar. Naqsh chizadilar.
4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash (10 daqiqa)	Oraliq yo'l yo'riqlar. 4.1. "Qor parchalari" texnologiyasini tushuntiradi va o'tkazadi (4-ilova).	Savollarga javob beradilar.
5-bosqich. Darsni yakunlash (10 daqiqa)	Yakuniy yo'l yo'riqlar 5.1. Amaliy mashg'ulotning bajarilishini tahlil qiladi, o'quvchilarni baholaydi. 5.2. Ish o'rnini tartibga solish. 5.3. Uyga vazifa beriladi.	Tinglaydilar. Kundaliklariga yozib oladilar.

Kashtadagi naqsh

Kashta tikish uchun kashta gul, rasm bo'lishi zarur. Ko'pincha kashta uchun rasm sifatida o'simliklarning, gullarning natural tasviridan, shuningdek, reproduksiya va otkritkalaridan ko'chirilgan syujetli suratlardan foydalaniladi.

1- ilova

Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar



2- ilova

Kashtado'zlikda xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalari

1. Ish o'rniga yorug'lik oldi yoki chap tomonidan tushishi;
2. Kashta tikayotganda to'g'ri va boshni sal oldinga egib o'tirish;
3. Kashta tikishdan oldin, ish o'rnida ortiqcha narsalar bo'lsa yig'ishtirib so'ngra tikishni boshlash;

4. Tikish tugagach hamma asboblarni joy-joyiga qo'yish;
5. Kashta tikayotganda nina, to'g'nog'ich, qaychi va angishvona bilan ishlaganda ehtiyot bo'lish.
6. Qaychining og'zi ochiq qolmasligi, biror kishiga uzatganda uning uchidan ushlab uzatish lozim.
7. Ninani og'ziga olib borish, ko'ylakka qadab qo'yish, har yerga tashlash, ipsiz qoldirish mumkin emas. Ninani biroz ipi bilan nina qadagichga qadab qo'yish kerak.

Bezakni gazlamaga ko'chirish

Bezakni yoruqqa tutib ko'chirish. Yupqa shaffof gazlamalarga kashta gulini gazlama tagidan yoritish yo'li bilan ko'chirish mumkin. Tagiga lampa qo'yilgan oyna ustiga yaxshi ko'rinadigan kashta gulini qo'yib, uning ustiga yaxshi tortilgan (kergiga o'rnatilgan) gazlama qo'yiladi. Gazlama tagida ko'rinib turadigan kashta gulni uchli qalam bilan gazlamaga chizib chiqiladi.

Bezakni teshma ko'chirish. Uni qog'ozga chizib olinadi, ustiga kalka qog'ozni qo'yib, ikkala qog'ozni igna bilan qadab, yumshok gazlama yoki bir necha qavat gazeta qog'ozini ustiga quyiladi. Bezak konturi bo'ylab ehtiyotkorlik bilan har 2-3 mm oraliqda igna bilan teshib chiqiladi. Natijada kalka ustida nuqtalardan teshma kashta guli hosil bo'ladi.

Geometrik shakldagi bezak uning kataklari va gorizontal chiziqlar kesishgan nuqtalarda teshib hosil qilinadi. Kashta gul chizilgan kalka qog'ozni kerosinlangan latta bilan artib, toza tomonini gazlamaga qaratib qo'yiladi.

Agar bezak ochiq rangli gazlamaga ko'chiriladigan bo'lsa, unda kerosinlangan tampon bilan oldin nusxa ko'chirish qog'ozining to'q rangli tomoni, keyin teshikli qog'oz ustidan surtiladi. nusxa ko'chirish qog'oz o'rniga sinka kukunini kerosin bilan aralashirib ishlatilsa ham bo'ladi. Kalka teshiklaridan bo'yoqli modda o'tib, gazlama ustida iz tushirib ko'chirish yo'li bilan nuqtalar shaklidagi iz hosil bo'lib, shu iz bo'ylab kashta tiksa bo'ladi.

To'q rangdagi gazlamaga bezakni ko'chirish uchun tamponni bo'r yoki tish poroshogi aralashgan kerosinda ho'llab olinadi. Shu maqsadda hech narsa bilan aralashmagan tish pastasini ham ishlatish mumkin.

3-ilova

O'simliksimon naqsh elementlarini chizish.

O'simliksimon naqsh elementlarini o'rganish ma'lum qonun-qoidalar asosida mashq qilishdan boshlanadi. Buning uchun oddiy qog'oz varag'i, chizg'ich, qora qalam, oq o'chirg'ich kerak bo'ladi. Naqsh elementlarini chizish alifbosi quyidagi bosqichda amalga oshiriladi.



4-ilova

“Qor parchalari” texnologiyasi.

Texnologiyani qo'llanilishi: Doskaga archa rasmi chiziladi. O'qituvchi yangi mavzu bo'yicha guruhlariga savollar beradi. O'quvchilarni javoblari izohlanib, baho qo'yiladi. Baholar qor parchalari bo'yicha ajratiladi va archalarga yopishtiriladi.



Savollar:

1. O'zbek kashtalarida qaysi naqshlar ko'p qo'llaniladi? (o'simliksimon, geometrik shakllar)
2. Qadimiy an'analarga ko'ra o'zbek qizlari o'z qo'llari bilan nimalar tikishgan? (dastro'mol, choyxalta, parda, belbog', sumka, nimcha, joynomoz, gulko'rpa, kirpich, zardevor, choyshab, so'zana)
3. Naqsh so'zi nima degan ma'noni anglatadi? (arabcha- tasvir, gul)
4. Bezakni nusxa ko'chiradigan qog'oz (kopirovka) yordamida qanday ko'chiriladi?
6. Bezakni yoruqqa tutib ko'chirish qanday amalga oshiriladi?
7. Bezakni shaffof qog'oz yordamida ko'chirish qanday amalga oshiriladi?
8. Kashtachilikda ishlatiladigan naqsh elementlari.

Qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishi

17-18 mavzu: Qishloq xo'jaligida paxta yetishtirish texnologiyasi va jarayoni Darsni olib borish texnologiyasi


O'quvchilar soni: 17 nafar	Mashg'ulot vaqti – 90 daqiqa
Dars shakli	Nazariy
Mavzu rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. G'o'zani o'sish va rivojlanish jarayonlari fazasi 2. G'o'za gullashi va hosili 3. G'o'zaning rivojlanish fazalari
Dars maqsadi:	O'quvchilarning qishloq xo'jaligida paxta yetishtirish texnologiyasi va jarayoni bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyatining natijalari:
<ol style="list-style-type: none"> 1. G'o'zani o'sish va rivojlanish jarayonlari fazasini o'rganish 2. G'o'za gullashi va hosili bilan tanishish 3. G'o'zaning rivojlanish fazalari haqida ma'lumot berish 	<ol style="list-style-type: none"> 1. G'o'zani o'sish va rivojlanish jarayonlari fazasini o'rganadilar 2. G'o'za gullashi va hosili bilan tanishadilar 3. G'o'zaning rivojlanish fazalari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar
Ta'lim metodi va texnikasi:	Og'zaki, ko'rgazmali, guruhlarda ishlash.
Ta'lim vositalari:	Slyd - taqdimot
Ta'limni tashkil etish shakllari:	Amaliy.
Ta'lim shart-sharoitlari:	Mehnat ta'limi darslarini olib borishga mo'ljallangan matabning maxsus dala maydoni.
Monitoring va baholash:	O'z – o'zini nazorat qilish, baholash.

Darsning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari. Vaqti (90 daqiqa)	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tashkiliy qism (5 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1.1. Salomlashish. 1.2. Davomatni aniqlash. 1.3. Navbatchi tayinlash. 1.4. Guruhlarga bo'lish. 	Guruh bo'yicha joylashadilar.
2-bosqich. O'tilgan mavzuni takrorlash (5 daqiqa)	2.1. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.	Uy vazifasini topshiradilar
3-bosqich. Yangi mavzu bayoni (60 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. G'o'zaning o'sishi va rivojlanishi jarayonlari fazasi (1- ilova) 2. G'o'za gullashi va hosili (2-ilova) 3. G'o'zaning rivojlanish fazalari (3-ilova) 	Tinglaydi, mavzu nomini va atamalarini yozib oladilar. Tajriba sinov o'tkazadilar.
4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash (10 daqiqa)	4.1. O'tilgan mavzu yuzasidan savollar beriladi (4- ilova)	Berilgan savollarga javob beradilar.
5-bosqich. Darsni yakunlash (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 5.1. Amaliy mashg'ulotning bajarilishini tahlil qiladi, o'quvchilarni baholaydi. 5.2. Ish o'rnini tartibga solish. 5.3. Uyg'a vazifa beriladi. 	Tinglaydilar. Tajriba sinov natijalarini kundaliklariga yozib oladilar.

<p>G'ozani o'sish va rivojlanish jarayonlari fazasi</p>	<p style="text-align: right;">1- ilova</p> <p>G'oz'a o'sish va rivojlanish jarayoni 5 ta asosiy fazadan iborat:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Unib chiqish. 2. Chinbarg chiqarish. 3. Shonalash. 4. Gullash. 5. Ko'saklarning ochilish fazasi.
---	--

<p>G'oz'a gullashi va hosili fazasi.</p>	<p style="text-align: right;">2-ilova</p>  <p style="text-align: center;">1- rasm. G'oz'a g'ullashi va hosili.</p>
--	--

<p>G'ozaning rivojlanish fazalari</p>	<p style="text-align: right;">3- ilova</p> <p>1- unib chiqish; 2- chinbarg chiqarish; 3- shonalash; 4- gullash; 5- pishish</p> 
---------------------------------------	--

<p>O'tilgan mavzu yuzasidan savollar.</p>	<p style="text-align: right;">4- ilova</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. G'oz'a o'sish uchun nechta faza mavjud va ularni sanab o'ting? 2. G'oz'a qanday temperaturada unib chiqadi? 3. G.oz.a necha kunda chinbarg chiqaradi?
---	--



ёндашув асосида бошқаришда раҳбарлар томонидан амалга ошириладиган ишларнинг вақтга боғлиқлик хусусиятларига кўра кунлик – энг зарур, ҳафталик – зарур, ойлик – улгурилиши зарур бўлган ва йиллик – босқичма-босқич амалга ошириладиган ишлар каби тоифаларга ажратишлари ҳамда шунга кўра режалаштириш, ташкил этиш, мувофиқлаштириш, рағбатлантириш, назорат ва таҳлил ишларини бажаришлари мумкин.

Мазкур тоифалар бўйича бажариладиган ишларни режалаштириш ва ташкил этишда раҳбарларнинг иш режаларига раҳбар ўринбосарлари ҳамда мутахассис ва бажарувчиларнинг режаларини мувофиқлаштиришлари, иш бошлашдан олдин кунлик режа, яъни биринчи тоифадаги ва бошқа тоифалардаги ишларнинг бажарилиши юзасидан келишиб олиниши мақсадга эришишда самарали ҳисобланади. Юқорида мактаб фаолияти бошқарув тизимида инновацияларнинг кириб келишини таълим мазмунида, методларида, шаклида, турларида, воситаларида, кўришимизни таъкидлаб ўтган эдик. Аммо, бундан ташқари мактаб раҳбариятининг функционал вазифаларига кирувчи ёхуд таълим муассасалари ва ҳудудий халқ таълими бошқаруви идораларининг рейтингини аниқлаш жараёнида инobatга олинадиган бир қанча омиллар бор-ки, булар бевосита мактаб фаолияти бошқарув тизимида раҳбар шахсининг инновацион фаолияти билан боғлиқ бўлиб, юқорида изоҳланган тоифалар асосида босқичма-босқич амалга оширилиши мақсадга мувофиқ. Бунга қуйидаги 14 та баҳолаш мезонлари бўйича эришилган ютуқлар асос қилиб олинади.

1. Ўқувчиларнинг умумтаълим фанлари бўйича билимлар беллашувидаги иштироки ва уларнинг натижалари.
2. Таълим сифати мониторинги натижалари.
3. Фан олимпиадасининг вилоят босқичи натижалари.
4. “Инглиз тили билимдонлари” кўрик танлови натижалари.
5. “Йилнинг энг яхши фан ўқитувчиси” кўрик-танлови натижалари.
6. “Йилнинг энг яхши мактаб директори” кўрик-танлови натижалари.
7. “Йил методисти” кўрик-танлови натижалари.
8. “Энг яхши мактаб веб-сайти” кўрик-танлови натижалари.
9. “Энг яхши ўқитувчи веб-сайти” кўрик-танлови натижалари.
10. “Энг яхши ўқувчи веб-сайти” кўрик-танлови натижалари.
11. “Энг яхши электрон ахборот ресурслари”

кўрик-танлови натижалари.

12. Илғор иш тажрибаларнинг республика миқёсида оммалаштирилиши.

13. Вазирлик томонидан тавсия этилган педагогик инновацияларнинг амалиётга самарали жорий этилганлиги.

14. “Энг обод таълим муассасаси” кўрик-танлови натижалари.

Шу сабабли ҳозирги пайтда раҳбар шахси ва фаолиятига қўйиладиган ижтимоий талабларнинг сони ҳар қачонгидан ҳам ортиб бормоқда. Ёш авлодга таълим-тарбия беришда билимли, юксак касбий компетенцияга эга мутахассисларга эҳтиёж туғилади, бу эса ўз навбатида таълим-тарбия жараёнига нисбатан инновацион ёндашувни талаб қилади.

Педагогик фаолият самарадорлиги шартларидан бири мутахассиснинг касбий тайёргарлиги ҳисобланади. Бундан ташқари, раҳбар фаолияти қуйидаги муҳим таркибий қисмлардан иборат бўлиши мақсадга мувофиқ:

- эмпирик – сезги аъзолари орқали билим олишни ифодаладиган;
- когнитив – моддий ва маънавий олам ҳақидаги билимларни кенгайтирувчи;
- эвристик – ижодий фаоллик ва ўқув-излашни меҳнатига асосланган;
- креатив – тадқиқот ва янгилик яратиш фаолияти билан боғлиқ;
- инверсион – ахборот ва маълумотларни қайта ишлаш ва ўзгартириш эвазига таълим-тарбия берувчи;
- интегратив – ўзлаштирилган билимларни тугал тафаккурга олиб келувчи;
- адаптив – ёш ва индивидуал хусусиятларни ҳисобга олиб ўқитишга таянувчи;
- инклюзив – таълим олувчи ва тарбияланувчи шахси билан ўқитувчини таълим тизимида мослаштириш муносабатидаги тенглик ва адолатлиликка бўйсунувчи.

Амалдаги узлуксиз таълим тизимида умумпедагогик инновацион технологик ёндашиш орқали кўзланган сифат ва самарадорликка эришиш имконияти мавжуд бўлиб, бунда раҳбарнинг инновацион фаолиятига эътиборни қаратиш муҳим вазифалардандир. Шу боис, раҳбар шахсининг профессионал фаолиятини таъминловчи компетенцияларни шакллантиришга йўналтирилган инновацион таълим технологияларини муваффақиятли қўлланиши, энг аввало, бошқарувда раҳбарнинг касбий салоҳияти асоси бўлган – касбий – педагогик компетенциясига боғлиқ. Ушбу ўринда таъкидлаш жоизки, ахборотлашган жамиятда глобал тармоқ шу қадар кенг тарқалдики, энди Интернетсиз дунёни, бирор фаолият турини тасаввур



этиш мушкул. Бугун глобал тараққиётнинг “қон томири” деб аталаётган Интернет инсон ҳаётининг параллел олами бўлиб, унда ҳар бир кишининг ўз виртуал ҳаёти ва фаолияти мавжуд. Бундай жуда катта ҳажмли ахборот фондидан раҳбарларимиз, ёш педагогларимиз маълум бир мақсад, ижтимоий даражасини кўтариш учун фойдаланиш компетенциясига эга бўлмоғи ҳам уларнинг инновацион фаолиятини ташкил этади.

Адабиётлар

1. Джураев Р.Х. Информатизация образовательного учреждения. // Журнал “Узлуксиз таъ-

лим”, 2012. - №1. – Б. 42 – 46.

2. Жумаев А.Ш. Кадрлар тайёрлаш миллий модели асосида ижтимоий фаол шахсни шакллантириш. // Журнал “Узлуксиз таълим”, 2006. - №6. – Б. 79 – 83.

3. Акрамова Ф.А. Шахс диагностикасига оид тестлар. – ТАЙИ.: 2011. – 476.

3. Жумаев А.Ш., Педагогик технологияларнинг таълим жараёнидаги ўрни ва уларни қўллаш билан боғлиқ муаммолар // Педагогика журнали. – 2014 - №4. – 3-86.

4. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. – Т.: Фан ва технология. 2008. – 131 б.

MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA KASHTACHILIK SAN'ATI BILAN TANISHTIRISH

S.O' Bekmurodova, *Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 160-sonli umumta'lim maktabi mehnat ta'limi o'qituvchisi*

Вышивание (вышивка) – общеизвестное и распространенное рукодельное искусство украшать самыми различными узорами всевозможные ткани и материалы. Искусство вышивания имеет многовековую историю, об этом свидетельствуют многочисленные находки археологов. Автор статьи приводит сведения развития искусства вышивания в нашей стране и знакомит с некоторыми узорами и приемами вышивания.

Ключевые слова и понятия: декоративно–прикладное искусство вышивания, узоры, приемы, рисунок, орнамент, иглы, наперсток, ножницы, сантиметр, заостренная палочка, пальцы, миллиметровая бумага, калька, копировальная бумага.

Embroidery - well-known needlework art to adorn a variety of designs to all kinds of fabrics and materials. The art of embroidery has a long history, evidenced by numerous archaeological findings. The author gives details of embroidery art in our country and introduces some patterns and techniques of embroidery.

Key words and concepts: arts and crafts, patterns, techniques, ornament, needle, thimble, scissors, centimeter, pointed stick, hoop, graph paper, tracing paper, carbon paper.



Бугунги кунда миллий hunarmandchilik va amaliy san'atni yanada rivojlantirishga davlat miqyosida katta ahamiyat berilmoqda. O'zbek milliy an'alarini qayta tiklab, yoshlarni hunar o'rganishga yo'naltirish ta'lim tizimida ham dolzarb vazifalardan sanaladi. Buni umumta'lim maktablaridagi mehnat ta'limi fani darslarida amalga oshirish mumkin bo'lib, o'quvchilarda mehnatga, kasb-hunarga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash va o'z iqtidor, qobiliyatlarini namoyon etishga shart-sharoit yaratish imkoni mavjud.

Ma'lumki, o'zbek xalqining yuksak san'ati va madaniyati uning kashtalarida, palaklarida ham o'z ifodasini topgan va asrlar osha saqlanib kelmoqda. Ajdodlarimiz o'z hunarlarini, san'atlarini kelgusi avlodlarga eson-omon yetkazish, ularni o'tmishimiz madaniyati-yu,

san'ati bilan oshno qilish uchun nechog'li katta g'ayrat-shijoat bilan, ko'z nurini, qalb qo'rini sarflab, tinimsiz mehnat qilganlar. Zero, xalq amaliy san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi.

Xalq amaliy san'at turlaridan biri bo'lgan kashtado'zlik qadimiy sohalaridan biri. Arxeologik topilmalar kashtado'zlikning deyarli barcha xalqlarda mavjud bo'lganligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga ularning ta'sirida rivoj topganini ko'rsatadi.

Qo'lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoq hamda o'rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi esa matoga gul tasviri konturini chizib erkin kashta tikish turlari. Arqoq o'rim iplari kesishtirib tikilgan polotno yoki bo'z shaklida to'qilgan matoga tikiladi,

ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

2/2015

Ilmiy-metodik jurnal



Web site: <http://www.tashxis.uz>
e-mail: maktabvahayot@sarkor.uz